



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSCHEGARAVIY SUV
OBYEKTLARINING HUQUQIY REJIMINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

Sa’diyev Nodirjon G‘olibjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura bosqichi talabasi

e-mail: nodirbeksadiyev@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Transchegaraviy suvlar dunyo miqyosida, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu suv resurslari nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish uchun ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, transchegaraviy suvlar taqsimoti va ulardan foydalanish masalalari ko'plab davlatlar o'rtasida ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham, ushbu mavzu nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqola transchegaraviy suvlardan foydalanishni milliy-huquqiy tartibga solish masalalariga bag'ishlangan. Unda O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi milliy qonunchiligi, xalqaro huquq normalari va mintaqaviy hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, transchegaraviy suv resurslaridan oqilona va adolatli foydalanishni ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: transchegaraviy suvlar, suv resurslari, mintaqaviy hamkorlik, ekologik barqarorlik, iqlim o‘zgarishi, suv havzalari, suv taqsimoti, suv bilan bog‘liq nizolar va suvdan oqilona foydalanish.

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВОГО РЕЖИМА
ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОДНЫХ ОБЪЕКТОВ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

Саъдиев Нодиржон Голибжон угли

Студент магистратуры

Ташкентского государственного юридического университета

e-mail: nodirbeksadiyev@gmail.com



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Аннотация

В статье рассматривается стратегическая важность трансграничных вод в мировом масштабе, особенно в регионе Центральной Азии. Данные водные ресурсы играют решающую роль не только в поддержании экологического баланса, но и в обеспечении региональной стабильности и экономического развития. Однако вопросы распределения и использования трансграничных вод могут вызывать конфликты между многими государствами. В связи с этим данная тема является актуальной как с научной, так и с практической точек зрения.

Настоящая статья посвящена вопросам национально-правового регулирования использования трансграничных вод. В ней анализируются национальное законодательство Республики Узбекистан в данной сфере, нормы международного права и механизмы регионального сотрудничества. Также разработаны предложения и рекомендации по обеспечению рационального и справедливого использования трансграничных водных ресурсов.

Ключевые слова: трансграничные воды, водные ресурсы, региональное сотрудничество, экологическая устойчивость, изменение климата, водные бассейны, распределение воды, водные споры и рациональное использование воды.

ISSUES OF IMPROVING THE LEGAL REGIME OF TRANSBOUNDARY WATER OBJECTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Sadiyev Nodirjon Golibjon ugli

Master's Degree Student, Tashkent State University of Law

e-mail: nodirbeksadiyev@gmail.com

Abstract

This article addresses the strategically significant role of transboundary waters on a global scale, particularly within the Central Asian region. These water resources are pivotal not only for maintaining ecological balance but also for ensuring regional



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

stability and economic development. However, the distribution and utilization of transboundary waters can lead to disputes among numerous states. Consequently, this topic is of significant relevance from both a scientific and practical perspective. This article is dedicated to the issues of national legal regulation of transboundary water use. It analyzes the national legislation of the Republic of Uzbekistan in this area, norms of international law, and mechanisms of regional cooperation. Furthermore, proposals and recommendations are developed to ensure the rational and equitable use of transboundary water resources.

Keywords: transboundary waters, water resources, regional cooperation, ecological sustainability, climate change, water basins, water distribution, water-related disputes, and rational water use.

Kirish

Bugungi kunda dunyoda sanoat va fan-texnika inqilobi davrida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tubdan o'zgarib ketdi. Bu kabi o'zgarishlar natijasida insoniyatning oldida bir-qancha ekologik muammolar yuzaga keldi. Ekologik muammolarni global deylilishiga sabab, bu ekologik muammolar sayyoramizda sodir bo'layotgan barcha iqtisodiy, ijtimoiy va tirik organizmlarning yashash sharoitiga o'z ta'sirini ko'rsatishidir.

Bu ekologik muammolar mintaqaviy bosqichdan boshlanib ularning globallashuvini keltirib chiqaradi, chunki ular sayyoramizning barcha jarayonlarga tirik mavjudotlarning yashash sharoitiga ham ta'sir qiladi.

Global ekologik muammolardan biri bu mintaqalardagi transchegaraviy suv muammolari bo'lib ular bugungi kunda global suv muammolarni keltirib chiqarmoqda. Markaziy Osiyoda bugungi kunda suv bilan bog'liq muammolar mintaqada kelajakda katta geosiyosiy va harbiy mojarolarni vujudga keltirish xavfi mavjud. Markaziy Osiyoda bugungi kunda yirik sanoatlashtirish jarayoni jadal sur'atlarda kechmoqda va aholining katta qismi qishloq hududlaridan shaharlarga ko'chib borishmoqda shu sababdan aholi hamda yirik sanoat komplekslarini suv bilan ta'minlashni qiyinlashtirmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlarida tabiiy resurslardan foydalanish o'tgan asrning 50-60 yillarida izdan chiqib hozirda ushbu resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini qiyinlashtirmoqda. Mintaqa



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

mamlakatlari bugungi kunda o‘zining strategiyasini ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarni rivojlantirishga qaratgan, shu sababdan bunda asosiy rejalar aholini hamda infratuzilmalarni tabiiy resurslar bilan ta‘minlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Material va metodlar

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari 2050-yilga qadar suv bilan bog‘liq katta muammolarni boshdan kechirishi aytilmoqda, Markaziy Osiyoda suv resurslaridan, sobiq SSSR davrida tartibsiz foydalanib kelingan va yerlar tezkorlik bilan o‘zlashtirilib mavjud barcha hududlarda paxta plantatsiyalari qilinib yerusti va yerosti suvlaridan jadal foydalanilgan. Paxta plantatsiyalaridan ko‘proq hosil olish maqsadida sun‘iy mineral o‘g‘itlardan foydalanilgan, paxta maydonlarini yoppasiga o‘g‘itlash jarayonida aholida mavjud ichimlik suvini ifloslantirishga hamda suvning sanitariya-epidemiologik holatni yomonlashtirib aholining sog‘lig‘iga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan, mavjud suv resurslaridan tartibsiz foydalanish mintaqada mavjud daryo va ko‘llarning sho‘rlanish darajasini oshirgan va suv zaxiralarini keskin qisqarishga olib kelgan.

O‘zbekiston hamda mintaqa mamlakatlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Mintaqaning mavjud suv zaxiralarining katta qismi O‘zbekiston, Tojikiston hamda Qirg‘iziston Respublikalarining tog‘li qismlarida bo‘lib, Turkmaniston, O‘zbekiston va Qozog‘istonning cho‘l zonalarida sho‘rlanish va cho‘llanish darajalari haligacha yuqoriligicha qolmoqda, bu holat ayniqsa Orolbo‘yi mintaqasida yaqqol sezilib turibti.

Suv resurslaridan oqilona foydalanishni rejalashtirish va boshqarish tizimini aholi uchun suv bilan kafolatli ta‘minlashni, iqtisodiyot tarmoqlarining ustuvorligi, suvni samaradorligini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni ta‘minlash talablarini hisobga olgan holda takomillashtirish zarur. Suv resurslarini boshqarishda atrof muhitni, tabiiy suv havzalari va ekotizimlarning suvga bo‘lgan talabini inobatga olish, shu jumladan, Orolbo‘yi hududida suv bilan bog‘liq vaziyatini barqarorlashtirish hamda Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlarini bartaraf etishga ko‘maklashish ham talab etiladi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda ushbu resurslardan foydalanishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish suv bilan bog‘liq muammolarni



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

yechishda aholining tashabbuskorligini oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

- XXI asr axborot davrini inobatga olib, suvdan oqilona foydalanish va aholining tejamkorligini oshirish bo'yicha ommaviy axborot vositalarida targ'ibot va tashviqot ishlarini yuqori sur'atlarda amalga oshirish;
- Ta'lim muassasalarida suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik qanday oqibatlariga olib kelishi hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha dasturlar yaratish;
- Tabiiy resurslarning nazorati hamda ularning holatiga mas'ul bo'lgan ma'muriy organlarning faoliyatini ochiq va shaffof amalga oshirish, suv bilan bog'liq masalalarda aholining fikrini inobatga olish va ushbu masalalar bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot natijalari

Ekologik masalalar bo'yicha jamoatchilik nazorati yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilishi ekologik falokatlarni oldini olishda katta qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mustaqillikning o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ekologiya masalasiga ham to'xtaldi.

«Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala – ekologik muammolar va suv tanqisligidir. Taroziining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi turgan bo'lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi. Bizning vazifamiz – har ikki yo'nalishda ham muvozanatni saqlashdan iborat. Hech qachon unutmasligimiz lozimki, tabiiy resurslar – bu kelajak avlodlarimizga ham tegishli bo'lgan boylikdir. Shu bois, ulardan nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham o'ylab, oqilona foydalanishimiz zarur. Bu borada suvni, energiya va boshqa tabiiy resurslarni tejaydigan iqtisodiyotga tezroq o'tish muhim ahamiyatga ega. Biz uchun «yashil»



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

va raqamli texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish vazifasi ham dolzarb bo‘lib turibdi» dedi davlat rahbari.¹

Suv hayot manbasining asosiy sharti bo‘lib, insoniyat o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida suv bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan, aholining katta qismi ham tabiiy suv havzalari daryolar va ko‘llar bo‘yida istiqomat qilgan, dunyo mamlakatlari suv zaxiralarini to‘plash maqsadida milliy manfaatlarini ustun qo‘yib daryo va ko‘llab bo‘yida suv zaxiralarini to‘plash uchun suv omborlari qurishmoqda, transchegaraviy daryolar bo‘yida qurilayotgan bunday suv omborlari mintaqada ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda, suv zaxiralarining asosiy qismi yomg‘ir suvlari, daryolar va yerosti suvlaridan iboratdir.

Suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik gidrosfera hamda litosferaning tabiiy faoliyatiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi, daryo hamda suvlarning tez sur‘atlarda qurishi va parlanishi gidrosferaning tabiiy faoliyatini buzib uning bir me’yorda ishlashini qiyinlashtirmoqda hamda mintaqa mamlakatlarida fasllarning o‘zgarishi va yoz faslida harorat eng yuqori darajaga chiqmoqda. Yerosti suvlaridan haddan ortiq ko‘p foydalanish yer ostida bo‘shliqlarni vujudga keltirib litosfera plitalarining holatiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda va kelajakda yerning cho‘kish holatlarini keltirib chiqarmoqda.

Mintaqadagi anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg‘oqchilik va chang bo‘ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho‘llanishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi ko‘rinishida namoyon bo‘layotgan murakkab ekologik vaziyat mavjud bo‘lib, Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o‘zgarishi oqibatlaridan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan mintaqalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mintaqa mamlakatlari hamjihatlikda “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida uchrashuvlar tashkil etishib, ekologik muammolarning dolzarbligini yana bir namoyon qilishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Bir makon, bir yo‘l” uchrashuvi doirasida ekologik masalani yana bir bor e’tiborga olish kerakligini ta’kidlab o‘tdi jumladan, “Yashil” taraqqiyot va ekologiya sohasi uchun malakali kadrlar tanqisligi ortib borayotganini hisobga olib, Markaziy Osiyo atrof-muhit va

¹ <https://rb.gy/r9k2eb>



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti negizida yetakchi xorijiy oliygohlar va ta'lim markazlari bilan hamkorlikda "Yashil" taraqqiyot va ekologiya sohasida mutaxassislar tayyorlash va akademik almashuvni rivojlantirish bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqishni va tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish masalasiga ham alohida to'xtaldi.²

Bundan tashqari davlat rahbari "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida taniqli jamoat arboblari, fan, biznes va madaniyat namoyandalari ishtirokida etno-ekologik festivallar, forumlar, taqdimotlar va boshqa tadbirlar o'tkazishni nazarda tutuvchi "yashil" madaniyatni rivojlantirish bo'yicha Global dasturni ishga tushirishni taklif qildi.³

Xulosa

Mamlakatimiz ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal qilish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga katta e'tibor qo'yadi. Muhofazada bir nechta qonun va hujjatlar orqali atrof-muhitni saqlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikka oid qonunlar amalga oshirilmoqda. Konsepsiyalarga ko'ra, mamlakatimiz atrof-muhitni saqlash bo'yicha o'zining strategiyasini o'rganmoqda va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning strategiyasini amalga oshirishga intilmoqda. Shuningdek, huquqiy jarayonlarda atrof-muhitga zarar yetkazish uchun javobgarlik choralari ham belgilangan. Davlatimiz rahbari global iqlim o'zgarishlarining ommaviy muammolardan biri sifatida tanilib, bu jarayonning salbiy ta'sirini his etayotganligini ta'kidlaydi.

Mazkur bog'lanishlar asosida, suv resurslaridan samarali foydalanishga oid huquqiy va ma'muriy jihatlar, birinchi navbatda, e'tibor qaratilishi lozim bo'ldi. Suv siyosatining esa maqsadi, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish va ulardan maksimal darajada foydalanishdir. Muvaffaqiyatli suv siyosati barcha darajalarda - milliy, havzaviy, mintaqaviy yoki mahalliy loyihalarda ko'rib chiqilishi kerak. Bu, har bir mintaqaning suv hozirgi hol va kelajakdagi ehtiyojlarini aholining o'sishi

² <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/18/green-economy/>

³ <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/18/green-economy/>



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

bilan birga hisobga olgan holda boshqarilishi va jiddiy yechimlarni qamrab olishi talab etiladi. Shuningdek, texnik va moliyaviy imkoniyatlar ham e'tibor qilinishi kerak. Har bir darajadagi mavjud suv va moliyaviy resurslar to'g'risidagi rejalashtirish va boshqarishni ta'minlash kerak. Milliy siyosat bilan bir qatorda, suv siyosati ham milliy rivojlanish rejasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi kerak va milliy rivojlanish jarayonining bir qismi sifatida harakat qilishi mumkin. Suv qonunchiligining to'g'ri tushunilishi, suv siyosati qarorlarining amalga oshirilishi, vositalarini yaratilishi va suv resurslaridan samarali foydalanishni osonlashtirishni ta'minlash lozimdir. Suv to'g'risidagi qonunchilikning yetarli emasligi esa ulardan foydalanishga to'sqinlik keltirishi mumkin. Ko'p jarayonlarda, suvga oid talablarni boshqarish va bajarish, suv ta'minoti bo'yicha amaldagi qonunchilikni rivojlantirish lozimdir.

References

1. United Nations. Convention on the Law of the Non-navigational Uses of International Watercourses 21 May 1997 – New York United Nations, 1997. – 14 p.
2. UNECE. Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes. Helsinki, 1992. – Geneva: UNECE, 1992. – 18 p.
3. Helsinki Rules on the Uses of the Waters of International Rivers. International Law Association, 1966. – London, 1966. – 16 p.
4. Berlin Rules on Water Resources. International Law Association, 2004. – London, 2004. – 28 p.
5. Salman M.A. Salman & Kishor Uprety. Conflict and Cooperation on South Asia's International Rivers: A Legal Perspective, World Bank Publications, 2002.
6. Xodjayev N. Xalqaro suv huquqi asoslari, – T.: TDYU nashriyoti, 2018.
7. Allayarov B. Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish huquqining dolzarb masalalari, – T.: Fan, 2015.
8. Tursunov B. Xalqaro ekologik huquqning dolzarb muammolari, – T.: TDYU, 2020.